



MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDA MIOPIYA VA REFRAKSION BUZILISHLAR UCHRASHI

Urazbayev Mansur Kunisbekovich

ToshPTI "Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi" kafedrası

2-bosqich magistratura talabasi

Ilmiy rahbar: D.Sc. Islamov Ziyovuddin Sardinovich.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti "Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi" kafedrası.

Dolzarliligi. Erta rivojlangan miopiya o'quvchining maktabdagi o'qish, mashg'ulot hamda darslarni o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Shu bilan birga bolaning kelgusida, kasb tanlash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jamiyatda o'z o'rinini topishda turli qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi.


Ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, Sharqiy Osiyo maktab bitiruvchilarining 80-90 foizida turli darajadagi miopiya mavjud. Shundan 10-20 foiz bitiruvchilarda esa, yuqori darajadagi, ko'rishga jiddiy xavf soluvchi miopiya uchraydi.[1]

Miopiya o'z vaqtida korreksiya qilinmasa, to'r parda ko'chishi, katarakta, glaukoma, ko'ruv diskidagi o'zgarishlar va makulopatiya kabi jiddiy asoratlarga olib kelishi mumkin.[2]

Tekshirish usullari va materiallar. Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani 223-sonli Ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining 5-11 sinflardan 542 nafar o'quvchining ko'rish o'tkirligi 2022 yilning mart oyida Sivtsev-Golovin jadvali yordamida tekshirildi. Tekshiruv natijasiga ko'ra, ko'rish o'tkirligida pasayish aniqlangan o'quvchilar esa, avtorefraktometr yordamida tekshirildi.

Tekshiruv natijalari va tahlili. Maktabning 542 nafar o'quvchisidan 156 nafarida (28,9 %) ko'rish o'tkirligining pasayishi aniqlandi. So'ng ushbu o'quvchilarda yana tekshiruv o'tkazilganda, ularning 24 nafarida yengil darajadagi miopiya, 6 nafarida o'rta darajadagi miopiya, 2 nafarida esa, yuqori darajadagi miopiya aniqlandi. Shuningdek, 3 nafar o'quvchida yengil darajadagi gipermetropiya, 4 nafarida anizometropiya, 3 nafar o'quvchida esa, aralash astigmatizm aniqlandi. Tekshirilgan o'quvchilardan ko'rish o'tkirligida pasayish kuzatilgan o'quvchilarning aksar qismida, 35 nafarida akkomadatsiya spazmi aniqlandi. Tekshiruvlar natijasining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'rta sinf o'quvchilari orasida (5-7 sinf) miopiya ko'proq tarqalganligi kuzatilmoqda (27 nafar). Yuqori sinf o'quvchilari (9-11 sinf) orasida esa, akkomadatsiya spazmi holati ko'proq ulushni tashkil etmoqda (71,4 %).

Xulosa. Tekshiruvdan o'tkazilgan ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining 156 nafarida ko'rish o'tkirligi pasayishi aniqlandi. O'quvchilar orasida akkomadatsiya spazmi va miopiya yuqori ulushlarda kuzatilmoqda, jumladan akkomadatsiya spazmi (22,4 %) va miopiya (20,5 %) tashkil qildi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G.Morgan, Kyoko Ohno-Matsui, et al. Myopia. The Lancet. 2012; 379(9827): 1739-1748
2. Ikuno Y. Overview of the complications of high myopia. Retina. 2017;37(12):2347-2351.

